

KASBIY STANDART

Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sozlovchilik ishlari

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sozlovchilik ishlari kasbiy standarti bo'yicha "Avtomatlar va yarimavtomatlar sozlovchisi", "Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi", "Dastur bilan boshqariluvchi manipulyatorlar va dastgohlar sozlovchisi" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

elektr qurilmasi — elektr energiyasini ishlab chiqarish, transformatsiya qilish, uzatish, taqsimlash hamda uni energiyaning boshqa turiga aylantirish uchun mo'ljallangan mashinalar, apparatlar, elektr uzatish liniyalari va yordamchi uskunalar yig'indisi (ular o'rnatilgan inshootlar va binolar bilan birgalikda);

elektr himoya vositalari — elektr qurilmalarida ishlayotgan odamlarni elektr tokidan jarohatlanishdan, elektr yoy va elektromagnit maydoni ta'siridan himoya qilish uchun xizmat qiladigan, holda o'zi bilan va transportda olib yuriladigan vositalar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

ish joyi — xodimlar ishlarni bajarish uchun ishga qo'yiladigan elektr qurilmaning uchastkasi. Faqat naryad yoki farmoyish bo'yicha ishlar ko'zda tutilgan ish joyiga taalluqli;

ish joyini tayyorlash — ish xavfsiz bajarilishini ta'minlash uchun ish joyida bajariladigan texnik tadbirlar;

ishlab turgan elektr qurilma — kuchlanish ostida bo'lgan yoki kommutatsiya apparatlarini ulash bilan kuchlanish berilishi mumkin bo'lgan elektr qurilmasi yoki uning qismi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida zarur bilim, mahorat, ko'nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart-sharoitlari, ishga munosabat va xulq-atvorga qo'yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan ro'yxati;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko'nikmalari darajasi bo'yicha mehnat funksiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas'uliyati parametrlari bo'yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

mehnat funksiyasi – mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o'zaro bog'liq mehnat harakatlari majmuasi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat faoliyati turi – kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo'lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

rasmiy ta'lim – davlat tomonidan tan olingan davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim;

ma'muriy-texnik xodimlar — elektr energetika sohasidagi tashkilotlarning rahbarlari, bo'lim boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek, zimmasiga ma'muriy vazifalar yuklatilgan muhandislar, texniklar va ustalar;

mahalliy navbatchi xodimlarsiz elektr qurilma — tezkor chiqish brigadalari (keyingi o'rinlarda — TCHB) yoki tezkor ta'mirlash xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan elektr qurilma, HL va elektr uzatish kabel liniyasi (keyingi o'rinlarda — KL);

mexanizmlar — gidravlik ko'targichlar, teleskopik minoralar, ekskavatorlar, traktorlar, avtoyuklagichlar, burg'ulash-kran mashinalari, mexanik uzatma yordamida uzaytirish yoki qisqartirish mumkin bo'lgan narvonlar va hokazolar;

mexanik qulf — kalit, olinadigan dastak va hokazolar bilan berkitiladigan qulf;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-20-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktyabrdagi "Elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda texnika xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi 638-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sozlovchilik ishlari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Texnik jarayonlarni, uskuna va qurilmalarni samarali, xavfsiz va sifatli boshqarish hamda ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz va belgilangan standartlarga muvofiq bajarilishini ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	C seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat 33 Mashina va uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va o'rnatish 33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 33.14 Elektr uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 33.14.0 Elektr uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Operator ishlab chiqarish jarayonlarida elektrotexnika va mashinasozlik uskuna va qurilmalarini nazorat qilish, ishlashini ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish hamda xavfsizlik va sifat standartlariga rioya qilish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		72232004 Avtomatlar va yarimavtomatlar sozlovchisi	3
		72232003 Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi	4
		72232005 Dastur bilan boshqariluvchi manipulyatorlar va dastgohlar sozlovchisi	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	kodi va nomi	Kodi	nomi	kodi	nomi
1	72232004 Avtomatlar va yarimavtomatlar sozlovchisi	A1.3	Avtomat va yarimavtomat dastgohlarini texnik sozlash va ishga tayyorlash	A1.01.3	Dastgoh parametrlarini (tezlik, bosim, harakat yoʻnalishi) texnologik talablar asosida sozlash
				A1.02.3	Texnologik hujjatlarga muvofiq sozlash ishlarini amalga oshirish
				A1.03.3	Dastgohlarni ishga tushirishdan oldin sinovdan oʻtkazish
		A2.3	Dastgohlarning texnik holatini nazorat qilish va nosozliklarni bartaraf etish	A2.01.3	Dastgohlarning ish faoliyatini kuzatish, texnik holatini baholash
				A2.02.3	Murakkab nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun sozlash ishlarini bajarish
				A2.03.3	Texnik xizmat koʻrsatish va xavfsizlik meʼyorlariga rioya etish
		A3.3	Sozlangan dastgoh ishini sinovdan oʻtkazish va sifat koʻrsatkichlarini taʼminlash	A3.01.3	Ishlab chiqarish jarayonini sinovdan oʻtkazish va texnologik parametrlarni tahlil qilish
				A3.02.3	Ishlov berilgan buyum yoki mahsulotning sifat koʻrsatkichlarini oʻlchash va baholash
				A3.03.3	Sinov natijalari asosida sozlash jarayonlarini takomillashtirish
2	72232003 Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi	B1.4	Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlarini ishga tayyorlash	B1.01.4	Ishlab chiqarish topshirigʻiga muvofiq dastgoh va agregat liniyalarning texnik holatini tekshirish
				B1.02.4	Asbob-uskunalar, moylash materiallari va oʻlchov moslamalarini tayyorlash
				B1.03.4	Ishni boshlashdan oldin xavfsizlik texnikasi talablariga muvofiq nazorat sinovlarini oʻtkazish
		B2.4	Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlarini sozlash va sinovdan oʻtkazish	B2.01.4	Dastgohlarning elektr, pnevmatik va mexanik tizimlarini texnologik talablar asosida sozlash
				B2.02.4	Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga mos parametrlarni (tezlik, harorat, bosim va hokazo) kiritish

				B2.03.4	Sinov bosqichida dastgoh ishini tekshirish va aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish
		B3.4	Ish jarayonida avtomatik liniya va agregat dastgohlarining barqaror ishlashini ta'minlash	B3.01.4	Ish jarayonida texnologik ko'rsatkichlarni kuzatish, me'yorlardan og'ishlarni aniqlash
				B3.02.4	Ehtiyot qismlar va detallarni o'z vaqtida almashtirish hamda texnik xizmat ko'rsatish jadvallariga amal qilish
				B3.03.4	Dastgoh ishlashi to'g'risida hisobot yuritish va muhandis-texnik xodimlarga axborot berish
3	72232005 Dastur bilan boshqariluvchi manipulyatorlar va dastgohlar sozlovchisi	D1.4	Dastur bilan boshqariluvchi manipulyator va dastgohlarning texnik tayyorligini ta'minlash	D1.01.4	Manipulyator va dastgohlarni ishga tayyorlash, ularning mexanik va elektr qismlarini tekshirish
				D1.02.4	Sensorlar, aktuatorlar, servo-dvigatellar va boshqaruv tizimlarining to'g'ri ulanligini sinovdan o'tkazish
				D1.03.4	Ishlab chiqarish jarayoni uchun dastlabki parametrlarni (tezlik, moment, pozitsiya) o'rnatish
		D2.4	Manipulyator va dastgohlarning dasturiy boshqaruvini sozlash va sinovdan o'tkazish	D.2.01.4	PLC, CNC yoki robot boshqaruv tizimlariga texnologik dasturlarni yuklash va sozlash
				D2.02.4	Harakat trayektoriyasi, sinxronizatsiya va xavfsizlik zonalarini dasturiy kalibrlash
				D2.03.4	Ish jarayonida aniqlangan xatoliklarni (pozitsiya, koordinata, sensor javobi) tahlil qilish va tuzatish
		D3.4	Avtomatlashtirilgan tizimlarning samarali va xavfsiz ishlashini ta'minlash	D3.01.4	Ish jarayonini monitoring qilish, ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash
				D3.02.4	Texnik xizmat va rejali profilaktika ishlarini o'z vaqtida bajarish
				D3.03.4	Xavfsizlik talablariga rioya etgan holda, nosozliklarni hujjatlashtirish va rahbariyatga texnik hisobot taqdim etish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Avtomatlar va yarimavtomatlar sozlovchisi
Mashg'ulot nomining kodi	72232
TMR bo'yicha malaka darajasi	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Qonun hujjatlariga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi lozim. Kasbiy faoliyat uchun belgilangan minimal yoshga ega bo'lishi talab etiladi. Jinsga nisbatan maxsus cheklovlar mavjud bo'lsa, ular hisobga olinadi Mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan sog'liq darajasiga ega bo'lishi va tibbiy ko'rikdan o'tishi shart Ishga munosabat va xulq-atvor: - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish;

	- Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	T 4 — 6 razryadli Avtomatlar va yarimavtomatlar sozlovchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi
	4	Dastur bilan boshqariluvchi manipulyatorlar va dastgohlar sozlovchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 Avtomat va yarimavtomat dastgohlarini texnik sozlash va ishga tayyorlash	A1.01.3 Dastgoh parametrlarini (tezlik, bosim, harakat yo'nalishi) texnologik talablar asosida sozlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik xarita va texnik yo'riqnomalarga muvofiq dastgohning asosiy parametrlarini (tezlik, bosim, harakat yo'nalishi) aniqlash va o'lchash
		2. Boshqaruv paneli yoki mexanik sozlash moslamalari yordamida belgilangan parametrlarni kiritish va tekshirish
		3. Sinov ishlarini amalga oshirib, parametrlarning to'g'riligini vizual yoki asbob yordamida nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Dastgoh va qurilmalar boshqaruv tizimida texnologik parametrlarni o'rnatish va o'zgartirish
		Parametrlarni o'lchash, tahlil qilish va me'yordan og'ish holatlarini aniqlash
		Ish jarayonida texnologik ko'rsatkichlar asosida optimal rejimni tanlash
		Bilimlar:
		Avtomat va yarimavtomat dastgohlarning texnik tuzilishi, boshqaruv tizimlari va parametr sozlash prinsiplari
		Tezlik, bosim va harakat yo'nalishining mahsulot sifati va texnologik jarayonga ta'siri
		Texnologik hujjatlar (xaritalar, yo'riqnomalar, reglamentlar) bilan ishlash va ulardagi ma'lumotlarni talqin qilish qoidalari
	A1.02.3	Mehnat harakatlari:

	Texnologik hujjatlarga muvofiq sozlash ishlarini amalga oshirish	1. Texnologik hujjatlar (chizma, yo'riqnoma, reglament) asosida sozlanishi kerak bo'lgan mexanik va elektr qismlarni aniqlash 2. Dastgoh mexanizmlarini, harakat uzatish elementlarini va boshqaruv bloklarini texnologik talablar bo'yicha sozlash 3. Sozlangan dastgohda sinov ishini bajarish, natijalarni tahlil qilish va kerak bo'lsa qayta tuzatish kiritish Ko'nikmalar: Texnologik hujjatlarda keltirilgan parametrlar va ketma-ketlik asosida sozlash ishlarini bajarish Mexanik, pnevmatik va elektr tizimlarning o'zaro bog'liqligini tushunib, ularni aniqlik bilan sozlash Sinov natijalari asosida dastgoh sozlamalarini optimallashtirish va barqaror ish rejimini ta'minlash Bilimlar: Dastgohlarning texnik pasporti, texnologik yo'riqnomalar va chizmalardagi belgilarni o'qish qoidalari Sozlash jarayonida qo'llaniladigan mexanik va elektr o'lchov asboblarning ishlash prinsipi Texnologik hujjatlar talablariga muvofiq sifat nazorati va sinov ishlarini o'tkazish tartibi
	A1.03.3 Dastgohlarni ishga tushirishdan oldin sinovdan o'tkazish	Mehnat harakatlari: 1. Dastgohning barcha mexanik va elektr qismlarini ishga tayyor holatga keltirish, ulanishlarni tekshirish 2. Sinov dasturini ishga tushirib, asboblarning javob tezligi va aniqligini kuzatish 3. Sinov natijalarini texnik talablarga muvofiq tahlil qilish va nosozlik aniqlansa, zarur sozlashlarni amalga oshirish Ko'nikmalar: Dastgohni xavfsiz tarzda ishga tushirishdan oldingi sinov bosqichlarini bajarish O'lchash asboblari va sinov jihozlari bilan ishlash, natijalarni aniqlik bilan baholash Texnologik yo'riqnomalarga muvofiq sozlash va sinov jarayonini hujjatlashtirish Bilimlar: Dastgohlarning sinovdan o'tkazish tartibi, mexanik, gidravlik va pnevmatik tizimlarning ishlash prinsiplari Ishga tushirishdan oldin xavfsizlik me'yorlari va texnik nazorat talablari

		Sinov natijalarini tahlil qilish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Texnik rahbar yoki ustaning nazorati ostida ishlash, lekin oddiy texnik qarorlarni mustaqil qabul qilish 2. Ish natijalarini to'g'ri hujjatlashtirish va texnik hisobotga kiritish uchun shaxsiy javobgarlik
A2.3 Dastgohlarning texnik holatini nazorat qilish va nosozliklarni bartaraf etish	A2.01.3 Dastgohlarning ish faoliyatini kuzatish, texnik holatini baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Dastgohning ish jarayonini real vaqt rejimida kuzatish va ko'rsatkichlarni qayd etish
		2. Ish paytida yuzaga kelayotgan tebranish, shovqin, harorat yoki bosimdagi o'zgarishlarni aniqlash
		3. Texnik holat bo'yicha dastlabki xulosalar chiqarish va kerak bo'lsa, sozlash yoki texnik xizmat zarurati haqida xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Dastgohlarning asosiy ish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va nosozlik belgilarini erta aniqlash
		Ish jarayonida foydalaniladigan o'lchov asboblari, sensorlar va monitoring tizimlari bilan ishlash
		Texnik holatni baholash natijalarini hujjatlashtirish va ishlab chiqarish hisobotlariga kiritish
	A2.02. 3 Murakkab nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun sozlash ishlarini bajarish	Bilimlar:
		Dastgohlarning ishlash prinsiplari, ularning asosiy mexanik va elektr qismlari funksiyalari
		Ish faoliyatini kuzatish mezonlari va texnik holatni baholash metodlari
		Dastgohlarning ishonchliligi, bardoshliligi va texnik xizmat ko'rsatish davriyligi
		Mehnat harakatlari:
		1. Dastgohdagi murakkab mexanik, pnevmatik yoki elektr nosozliklarni aniqlash va sabablari bo'yicha tahlil qilish
		2. Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish uchun tegishli sozlash, qismlarni almashtirish yoki tuzatish ishlarini bajarish
		3. Bajarilgan sozlash ishlari natijasini sinovdan o'tkazish va dastgohni qayta ish holatiga keltirish
		Ko'nikmalar:
		Murakkab texnik nosozliklarni tahlil qilish, ularni aniqlash va bartaraf etish tartibini to'g'ri tanlash
		Texnik hujjatlar, sxemalar va ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalaridan foydalanib sozlash ishlarini bajarish
		Texnik xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda murakkab mexanik va elektr sozlash ishlarini bajarish

		Bilimlar:
		Dastgohlarning texnik tuzilishi, funksional bloklari va ularning o'zaro ishlash prinsiplari
		Nosozliklarning asosiy turlari, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish usullari
		Diagnostika va sinov uskunalaridan foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish standartlari va xavfsizlik talablari
	A2.03. 3 Texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlik me'yorlariga rioya etish	Mehnat harakatlari:
		1. Dastgoh va uskunalarga profilaktik texnik xizmat ko'rsatish ishlarini reglament asosida bajarish
		2. Ish joyida yong'in, elektr va ishlab chiqarish xavfsizligi qoidalariga rioya etish
		3. Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida aniqlangan xavfli holatlar haqida rahbarga yoki mas'ul shaxsga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida xavfsizlik me'yorlarini amalda qo'llash
		Dastgohlarni xavfsiz tarzda to'xtatish, tozalash va qayta ishga tushirish tartibini bilgan holda ishlash
		Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va ekologik talablarni ishlab chiqarish jarayonida tatbiq etish
		Bilimlar:
		Texnik xizmat ko'rsatishning asosiy turlari (profilaktik, joriy, kapital) va ularni o'tkazish tartibi
		Mehnat xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi bo'yicha amaldagi normativ hujjatlar
		Ish joyini toza va tartibli saqlash, chiqindilarni xavfsiz utilizatsiya qilish bo'yicha texnologik talablar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ishlab turgan dastgohlarning texnik sozligi, xavfsiz ishlashi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik
		2. Nosozliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha mustaqil tashxis qo'yish va texnik yechimlarni qo'llash, lekin murakkab holatlarda texnik rahbar bilan kelishish
		3. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarida mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va ishlab chiqarish intizomiga rioya etish bo'yicha javobgarlik
		4. Dastgohlarning texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida qayd etish va hisobot berish mas'uliyatini bajarish
A3.3	A3.01.3	Mehnat harakatlari:

Sozlangan dastgoh ishini sinovdan o'tkazish va sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash	Ishlab chiqarish jarayonini sinovdan o'tkazish va texnologik parametrlarni tahlil qilish	1. Sozlangan dastgohni sinov rejimida ishga tushirib, texnologik parametrlarning (tezlik, bosim, harorat, harakat yo'nalishi) barqarorligini tekshirish 2. Ishlab chiqarish jarayonida o'lchov vositalari yordamida natijalarni qayd etish va ularni texnologik talablar bilan solishtirish 3. Tahlil natijalariga ko'ra aniqlangan chetlanishlarni bartaraf etish yoki tegishli texnik o'zgartirishlar kiritish Ko'nikmalar: Sinov jarayonini to'g'ri tashkil etish, texnologik parametrlarni kuzatish va tahlil qilish Sinov natijalari asosida dastgoh ish rejimini optimallashtirish bo'yicha qaror qabul qilish O'lchov asboblari bilan ishlash va natijalarni texnologik hujjatlarda to'g'ri qayd etish Bilimlar: Sinov ishlari metodikasi, texnologik jarayonning asosiy ko'rsatkichlari va ularni baholash mezonlari O'lchov vositalarining ishlash prinsiplari, kalibrlash qoidalari va aniqlik darajasi Ishlab chiqarish jarayonlarida sifatni boshqarish tamoyillari va tahlil usullari (statistik va texnologik)
	A3.02.3 Ishlov berilgan buyum yoki mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini o'lchash va baholash	Mehnat harakatlari: 1. Tayyor buyum yoki detallarni o'lchov asboblari (mikrometr, shtrix o'lchagich, indikator) yordamida nazorat qilish 2. Mahsulotning geometrik shakli, sirt silliqligi, aniqlik darajasi va boshqa texnik ko'rsatkichlarini me'yoriy hujjatlar bilan solishtirish 3. O'lchov natijalarini sifat nazorati jurnali yoki texnologik kartaga qayd etish Ko'nikmalar: Turli o'lchov vositalaridan to'g'ri va xavfsiz foydalanish O'lchov natijalarini tahlil qilish va me'yordan chetlanishlarni aniqlash Sifat nazorati hujjatlarini to'ldirish va ishlab chiqarish talablariga muvofiq baho berish Bilimlar: Mahsulot sifatini baholash mezonlari, o'lchov birliklari va aniqlik sinflari O'lchov asboblarning tuzilishi, ishlash prinsipi va kalibrlash tartibi Sifat menejmenti tizimlari (ISO 9001 va sh.k.) hamda ishlab chiqarish jarayonlarida sifatni nazorat qilish tamoyillari

	A3.03.3 Sinov natijalari asosida sozlash jarayonlarini takomillashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Dastgoh sinov natijalarini tahlil qilib, texnologik parametrlardagi og'ishlarni aniqlash
		2. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida dastgoh sozlamalariga aniqlik kiritish va optimallashtirish
		3. Takomillashtirilgan sozlash natijalarini qayta sinovdan o'tkazish va texnologik hujjatlarga kiritish uchun rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Sinov natijalarini texnik tahlil qilish va u asosida sozlash parametrlarini yangilash
		Ishlab chiqarish jarayonida samaradorlik va aniqlikni oshirishga qaratilgan takomillashtirish ishlarini bajarish
		Sozlash natijalarini hujjatlashtirish va texnologik jarayonlarga mos ravishda joriy etish
		Bilimlar:
		Texnologik jarayonlarni optimallashtirish prinsiplari va usullari
	Dastgohlarning ish parametrlari va ularni o'zgartirishning ishlab chiqarish sifatiga ta'siri	
	Texnik hujjatlar, sinov protokollari va ishlab chiqarish hisobotlarini yuritish tartibi	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Sozlangan dastgohning ishga tayyorligi, texnologik parametrlarning me'yorlarga muvofiqligini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik
		2. Ish jarayonida aniqlangan og'ishlar, nosozliklar yoki sifatdagi kamchiliklarni mustaqil aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish
		3. Sinov natijalarini aniq va ishonchli tarzda qayd etish hamda rahbarga hisobot berish uchun javobgar
		4. Ish faoliyatida mehnat xavfsizligi, texnik reglamentlar va sifat standartlariga rioya etish bo'yicha qat'iy mas'uliyatni bajarish
		5. Texnik rahbar yoki muhandis nazorati ostida ishlash, ammo oddiy texnik qarorlarni mustaqil qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		
Kalitlar to'plami (kombinatsiyalangan, dinamometrik, halqali, gayka buragichlar) Otvoyortkalar (oddiy, elektr izolyatsiyalangan, momentli) Shesternyali tortkichlar va qisqichlar Bolg'a, kiyik (rezina va metall), qistirgichlar (tiski, klemp)		

	Payvandlash va lehimlash moslamalari (elektr va gazli) Mikrometrlar, shtangensirkullar, indikatorli o'lchov moslamalari Shakl va o'lcham aniqligini tekshiruvchi plitalar (granitar stol, kalibrlash plitalari) Sirt silliqiligi o'lchagich (profilometr) Elektr o'lchov asboblari (multimetr, ampermetr, voltmetr, megommetr) Manometr, termometr, tachometr – bosim, harorat va aylanish tezligini o'lchash uchun
--	--

LOYIHA

Kasbning nomi	Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi
Mashg'ulot nomining kodi	72232
TMR bo'yicha malaka darajasi	4
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Qonun hujjatlariga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi lozim Kasbiy faoliyat uchun belgilangan minimal yoshga ega bo'lishi talab etiladi. Jinsga nisbatan maxsus cheklolvar mavjud bo'lsa, ular hisobga olinadi Mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan sog'liq darajasiga ega bo'lishi va tibbiy ko'rikdan o'tishi shart
	Ishga munosabat va xulq-atvor: - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish - Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish

Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:		umumiy o'rta ta'lim,tayanch o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi		Ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi		-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:			
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		3	Avtomatlar va yarimavtomatlar sozlovchisi
		4	Dastur bilan boshqariluvchi manipulyatorlar va dastgohlar sozlovchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
